



## **NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

---

"PEDAGOGIK TA'LIM VA TARBIYA  
TRANSFORMATSIYASIDA FUNDAMENTAL,  
AMALIY VA INNOVATSION TADQIQOTLARNING  
KONSEPTUAL ASOSLARI"

*Respublika ilmiy-amaliy  
anjumani dasturi*

**«Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Namangan 2025-yil.**

To‘plamga 2025-yil 29-may kuni institutda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etgan Oliy o‘quv yurtlar professor-o‘qituvchilar, doktorantlari, magistratura mutaxassisligi va bakalavriat yo‘nalishi talabalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlarining ma’ruza materiallari kiritilgan. Chop etilgan materiallarining mazmuni va haqqoniyligiga mualliflar mas’ul hisoblanadilar.

**Anjuman tashkiliy qo‘mitasi**

Husanov B.E	- NamDPI rektori, rais
Qodirxonov M.R	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
Yuldashev J.A	- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash sektori
Abdullayev T.U	- Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani
Matkarimov A	- Aniq fanlar kafedrasi mudiri
Abdullayev S.X	- Aniq fanlar kafedrasi professori
Najmuddinova X.Y	- Aniq fanlar kafedrasi professori
Uluxanov I.T	- Aniq fanlar kafedrasi professori
Xudayqulov Sh.S	- Aniq fanlar kafedrasi dotsenti
Eshnazarova M.Y	- Aniq fanlar kafedrasi dotsenti
Tursunova Sh.B	- Aniq fanlar kafedrasi dotsenti
Mirzayev T.S	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yusupov D. A	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Alijanov D.A	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Muxitdinova M.J	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Mo‘minova M.U	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ibroximov M.A	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Ziyamova G.T	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Xusayinova G	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Maxsudova Sh.M	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Turdaliyeva N.A	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
O‘ktamaliyev I	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
G‘ayniddinov Sh.T	- Aniq fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Samatov A	- Aniq fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Qurbanov M	- Aniq fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

NamDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti kengashining 2025-yil 30-maydag‘i 9-sonli qaroriga asosan anjuman materiallari chop etishga tavsiya qilingan.

## **TENGLAMALARNI YECHISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA SHAKLLANADIGAN MUHIM KOMPETENSIYALAR**

**Davlatova Munisa Aminovna  
CHDPU o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** maqolada tenglamalarni yechish jarayonida o'quvchilarda shakllanadigan bir qator muhim kompetensiyalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** matematika, kompetensiya o‘quvchilar, tenglama, ta’lim, komptentlik, bilim, ko’nikma.

Respublikamizda xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘sishimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora – tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyatga tatbiq etildi, umumiy o‘rta ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me’yoriy asoslari yaratildi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarni o‘zlashtirilgan axborotlarni o‘quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostonstandart vaziyatlarida qo’llay olishga tayyorlashi bilan xarakterlanadi.

Kompetensiya (lotincha “competo” so‘zidan olingen bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma’nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko’nikma, malakalar majmuasini anglatadi.

Kompetensiya – ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchilarning egallangan bilim, ko’nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo’llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

Tenglamalarni yechish jarayonida o'quvchilarda bir qator muhim kompetensiyalar shakllanadi. Bu kompetensiyalar nafaqat matematikaga oid, balki kundalik hayotda ham qo'l keladi. Quyida asosiy kompetensiyalarni keltiramiz:

1. Matematik kompetensiya:

- Matematik tushunchalarni tushunish: Tenglama, o'zgaruvchi, koeffitsient, tenglik, ayniyat kabi asosiy tushunchalarni anglash.
- Algebraik amallarni bajarish: Ifodalarni soddalashtirish, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, qavslarni ochish kabi amallarni to'g'ri bajarish.
- Formulalarni qo'llash: Turli tenglamalarni yechish uchun kerakli formulalarni bilish va ularni to'g'ri qo'llay olish (masalan, chiziqli tenglamalarni yechish formulasi).
- Matematik modellashtirish: Hayotiy masalalarni matematik tilda ifodalash (tenglama tuzish) va ularni yechish orqali muammoni hal qilish.

2. Mantiqiy fikrlash kompetensiyasi:

- Analiz qilish: Masalani tahlil qilish, berilgan ma'lumotlarni aniqlash va noma'lumlarni belgilash.
- Deduksiya: Ma'lum qoidalardan foydalanib, yangi xulosalar chiqarish (masalan, tenglamaning har ikkala tomoniga bir xil songa bo'lish qoidasi).
- Induktsiya: Bir nechta misollar asosida umumiyl qonuniyatlarni aniqlash.
- Sabab-oqibat aloqalarini aniqlash: Tenglamani yechish bosqichlari o'rtaсидagi mantiqiy bog'liqlikn tushunish.

3. Muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyasi:

- Muammoni aniqlash: Masalaning mohiyatini tushunish va uni matematik tilda ifodalash.
- Yechish strategiyasini ishlab chiqish: Tenglamani yechishning eng maqbul usulini tanlash.
- Yechimni amalga oshirish: Tanlangan strategiyani qo'llab, tenglamani yechish.

- Natijani baholash: Topilgan yechimning to'g'riliгини текширish va uni masala shartlariga mosligini aniqlash.

#### 4. Kommunikativ kompetensiya:

- Matematik tilda gapirish: Matematik terminlarni to'g'ri ishlatalish va o'z fikrini aniq ifodalash.

- Boshqalarni tushunish: Boshqalarning yechimlarini tahlil qilish va ularning xatolarini ko'rsatish.

- Jamoada ishlash: Tenglamalarni birgalikda yechish va yechimni muhokama qilish.

#### 5. Axborot kompetensiyasi:

- Axborotni izlash: Tenglamalarni yechish uchun kerakli ma'lumotlarni manbalardan topish (darsliklar, internet).

- Axborotni qayta ishlash: Topilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, saralash va ulardan keraklisini ajratib olish.

- Axborotni taqdim etish: Yechimni aniq va tushunarli tarzda yozma yoki og'zaki shaklda taqdim etish.

#### 6. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi:

- Mustaqil o'rganish: Tenglamalarni yechishni mustaqil o'rganish va yangi bilimlarni egallash.

- O'z xatolarini tan olish: Xatolarni tahlil qilish va ulardan saboq chiqarish.

- O'zini baholash: O'z bilim va ko'nikmalarini baholash va o'z ustida ishlash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu kompetensiyalar o'quvchilarga nafaqat matematikani o'rganishda, balki hayotda ham muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" 2019-yil 8-oktabr. PF-5847

2. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: автореф. дисс. д-ра пед. наук. – М. – 1998. – 48 с.

3. Андреев А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа педагогика // Педагогика. – М. – 2005. – № 4. – С.19-26.

4. Маҳмудов А.Х. Узлуксиз таълим жараёнига компетентлик ёндошувини жорий

қилишининг дидактик асослари // Узлуксиз таълим. – 2012. – № 4. 8-12 бетлар.

5. Турғунов С.Т., Даниёров Б.Х. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлилигини

ривожлантириш жараёнлариги тизимли ёндашув // Халқ таълими. – 2011. – № 5. 71-

76 бетлар.

6. Давлатова М.А. Наримбетова З.А., Значимость организации упражнений для развития скорости устного счёта на уроках математики у учащихся начальных классов // Муаллим ҳәм узликсиз билимленидиү, 2024. 1/3-сон, 658-665 б.

7. <http://www.dissers.info>

8. [http://www.austms.org.au/publ/jaustMs\\_writing.pdf](http://www.austms.org.au/publ/jaustMs_writing.pdf)

9. <http://www.bigpi.biysk.ru/wwwsite/source>.

10. [http://www.ippd.univers.krasu.ru/bibl/pedagog\\_razvitie](http://www.ippd.univers.krasu.ru/bibl/pedagog_razvitie)

## **ОҚЫТУ ЖӘНЕ ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТӘЖІРИБЕНІ ҰЙЫМДАСТЫРУ ФОРМАЛАРЫ**

**Атабаев Серикбай Сапарович**

**utalov507@gmail.com**

### **АННОТАЦИЯ**

Бұл мақалада оқыту мен педагогикалық тәжірибелі ұйымдастырудың әртүрлі формалары қарастырылады. Әрбір форма білім беру үдерісін тиімді ұйымдастыруға ықпал етіп, оқушылардың шығармашылық, коммуникативтік, сынни ойлау қабілеттерін дамытады. Сыныптық-уроктық жүйе, жобалық оқыту, топтық және жұптық жұмыс, практикалық сабактар, зерттеу негізіндегі оқыту және дистанциялық оқыту сияқты негізгі формалар талданады. Мұғалімдер мен оқушылар арасындағы тиімді қарым-қатынас пен жұмыс түрлерін ұйымдастыру әдістері ұсынылады.

**Кілт сөздер:** оқыту формалары, педагогикалық тәжірибе, сыныптық-уроктық жүйе, жобалық оқыту, топтық жұмыс, сынни ойлау, дистанциялық оқыту.

### **АННОТАЦИЯ**

62.	TENGLAMALARNI YECHISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA SHAKLLANADIGAN MUHIM KOMPETENSIYALAR Davlatova Munisa Aminovna	304
63.	OҚЫТУ ЖӘНЕ ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТӘЖІРИБЕНІ ҰЙЫМДАСТАРЫ ФОРМАЛАРЫ Атабаев Серикбай Сапарович	307